


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI

“Fizika va kimyo” kafedrası

KIMYO
FANIDAN LABORATORIYA ISHLARINI
BAJARISH UCHUN

USLUBIY QO‘LLANMA



TOSHKENT-2023

Ushbu uslubiy qo‘llanma universitet ilmiy uslubiy Kengashining 25 oktabr 2023 yil 7- sonli majlisida ko‘rib chiqildi va chop etishga tavsiya qilingan.

“Kimyo” fanidan laboratoriya ishlari tasdiqlangan namunaviy dastur asosida tuzilgan.

Ushbu laboratoriya ishlarini bajarish uchun mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanma “TIQXMMI” *MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI ning barcha fakultet talabalari uchun mo‘ljallangan. Uslubiy qo‘llanmaning maqsadi amalda tajribalar yordamida nazariy bilimlarni mustahkamlash, kimyo kursini turli bilimlarini bir-biriga bog‘lash, tajriba bajarayotgan vaqtida*

Anorganik birikmalarni olish, ularning kimyoviy xossalari va xususiyatlarini o‘rganish haqida qilingan laboratoriya ishlarni nazariy asoslaridan iborat.

Uslubiy qo‘llanmada, kimyoviy laboratoriyasida ishlash qoidalari, laboratoriyada ishlash qoidalari, laboratoriyada roya qilinadigan xavfsizlik qoidalari, tajriba bajarayotgan vaqtida ko‘ngilsiz hodisalar ro‘y berganda birinchi yordam ko‘rsatish, kimyoning asosiy bo‘limidan anorganik birikmalarning asosiy sinflari, asos, kislota, oksid va tuzlar haqida umumiy ma‘lumot, ularga doir tajribalar, kimyoviy kinetika va kimyoviy muvozanat, kimyoviy reaksiya tezligiga ta‘sir etuvchi omillar, suv haqida umumiy ma‘lumot, suvning fizik va kimyoviy xossalari haqida nazariy bilimlari batafsil berilgan.

Har bir nazariy bilimlardan kelib chiqib laboratoriya ishlari ham kiritilgan. Har bir bo‘limdan so‘ng talabalar uchun nazariy savollar qolaversa kimyo fanini mustaqil o‘rganish uchun test savollari ham joy olgan.

Ushbu laboratoriya ishlarini bajarish uslubiy qo‘llanmasi barcha qiziquvchlar uchun mo‘ljallangan

**TUZUVCHILAR: Choriyev A.X. b.f.f.dok., dotsent
Shermatova G. assistent.
Esanmurodova SH. N. o‘rganuvchi o‘qituvchi**

Taqrizchilar: S.N.Xadjibekov. P.f.d., dotsent. milliy tadqiqot universiteti

**E.B.Abdurahmonov. k.f.d. prof., O‘zbekiston Respublikasi Fanlar
Akadimiyasi umumiy va noorganik kimyo instituti**

**©. “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari
instituti” milliy tadqiqot universiteti 2023 yil**

Kirish

Kimyo inson faoliyatining eng qadimgi sohasi hisoblanadi. Kimyo fan va faoliyat sohasidir. Juda qadim zamonlardan beri odamlar tevarak – atrofdagi tabiat bilan doimiy muloqatda bo‘lib, unga kimyo vositasida ta’sir etganda hamda o‘zlari uchun zarur material va mahsulotlar olganlar. Bunda misol sifatoda metal eritish, shisha, spool va gazlamalar uchun bo‘yoq tayyorlash, teri oshlash, non yopish va hokazolarni aytib o‘tishning o‘zi kifoya. Kimyo fani tabiiy fanlar qatoriga kiradi. U moddalarning tarkibi, tuzilishi, xossalari va o‘zgarishlarini, shuningdek bu o‘zgarishlarda sodir bo‘ladigan hodisalarni o‘rganadi.

Kimyoning asosiy vazifalardan biri-moddalarni, ularning xossalarini o‘rganish va ulardan xalq xo‘jaligining qaysi tarmoqlarida, qanday maqsadda foydalanish mumkinligini oldindan aytib berisdir.

Kimyoning ikkinchi vazifasi-xalq xo‘jaligida ishlatiladigan turli xil moddalar olish, bulardan turli xil plastmassalar, mineral o‘g‘itlar, dori-darmonlar va hokazo olinishidir

Demak, kimyo – moddalar, ularning xossalari, moddalarning o‘zgarishilari va bu o‘zgarishlarda sodir bo‘ladigan hodisalar haqidagi fandır.

Ilmiy-texnika taraqqiyotida ham kimyoning ahamiyati katta. Kimyo qishloq xo‘jaligining mahsuldorligi ham ko‘p jihatdan kimyo sanoatiga bog‘liq. Mineral o‘g‘itlar, o‘simliklarni zararkunahdalardan himoya qilish vositalari kimyo sanoatining mahsulotlaridan. Shungdek qurlish qurilish materiallari, dori - darmon ishlab chiqarishda, tabiiy va sintetik gazlamalar olishda yengil sanoat, oziq - ovqat sanoatida hamda qolaversa, foydali qazilmalar qazib olish, metallar va metallarning qotishmalarini yaratishda kimyo yutuqlaridan foydalanilmoqda.

Mazkur uslubiy qo‘llanmada umumiy - uslubiy ko‘rsatmalar, kimyo laboratoriyasida ishlash qoidalari, laboratoriyada rioya qilinadigan xavfsizlik qoidalari, tajriba bajarayotgan vaqtda ko‘ngilsiz hodisalar ro‘y berganida birinchi yordam ko‘rsatish, anorganik birikmalarning asosiy sinflari, asos, kislota, oksid va tuzlar, kimyoviy kinetika va kimyoviy muvozanat, kimyoviy reaksiya tezligiga ta’sir etuvchi omillar, suv haqida umumiy ma’lumot, suvning fizik va kimyoviy xossalar haqida nazariy bilimlar batafsil berilgan.

Talaba ushbu o‘quv - uslubiy qo‘llanmaning har qaysi mavzu va laboratoriya so‘ngida keltirilgan savollargjavob berishi va oxirida mustaqil izlanish uchun berilgan topshiriqlar, test va masalalarni bajarishi talab qilinadi. Zero bu vazifalarni bajarish talabalarning mustaqil ishlarini samarali bo‘lishiga yordam beradi.

Kimyo laboratoriyalaridan ishlash qoidalari va ehtiyot choralari. Kimyoviy idishlar, reaktevlar va ulardan foydalanish.

Kimyo laboratoriyasida ishlash qoidalari va ehtiyot choralari. Talabalar laboratoriya mashg'ulotlarini mehanik ravishda emas, balki tushungan holatda bajarishlari lozim. Shuning uchun har bir mashg'ulot oldidan nazariy tushunchalarni va laboratoriya ishini bajarish texnikasini o'zlashtirishlari lozim.

Laboratoriya mashg'ulotlarida har xil portlavchi, alanganuvchi moddalar (suyqliklar), kuchli kislota va ishqorlar bilan ishlaniladi. Shuning uchun quydagi xafsizlik qoidalariga rioya qilish kerak:

1. Talabalar laboratoriya xonasida xalatda bo'lishi va toza sochiq tutishi lozim.
2. Ish stolida sumka va laboratoriya ishiga taaluqli bo'lmagan buyumlar qo'yilmaydi.
3. Laboratoriya mashg'ulotlarini boshlashdan oldin har bir talaba laboratoriya uchun uslubiy va o'quv qo'lanmasidan hamda darslik va ma'ruza materiallaridan mavzuga doir tegishli nazariy bilimlarni o'zlashtirish uchun laboratoriya ishining mazmuni bilan chuqur tanishib chiqilgan bo'lib o'qituvchiga ishning bajarilish tartibini tushuntirish lozim.
4. Laboratoriya ishiga tayorgarlik ko'rish vaqtida biror narsa tushunarsiz bo'lsa, ishni boshlash oldidan uni o'qituvchidan so'rab bilishi zarur.
5. Talaba tajribani o'zi uchun belgilangan ish o'rnida bajarishi lozim.
6. Laboratoriyada cheksiz, ovqatlanish qat'iy man etiladi.
7. Tajribalarni qo'llanmada ko'rsatilgan tartibda bajarish kerak.
8. Tajribalarni o'tkazilayotgan talaba o'z ish stoli ustida ammiak, kislota va shunga o'xshash boshqa zararli moddalarni bug'latish mutloqo mumkin emas. Agar tajribada taqozo qilinsa, ish mo'rili (havoni tozalash uchun mo'ljallangan), shakilda o'tkazilishim lozim.
9. Tajriba o'tkazish uchun kerakli idishdan eritma olingandan so'ng, tezgina uning og'ziga berkitilib o'z joyiga qo'yilishi kekak.
10. Umumiy foydalanish uchun qo'yilgan reaktivlardan har kim o'zi foydalanayotgan shpatel yoki pipetka bilan olishi mumkin emas.
11. Ishlatilmay ortib qolgan reaktivni shu reaktiv olingan idishga qaytarib solmaslik kerak.
12. Tajriba uchun kerakli vositalar, reaktivlar va asboblarni yaroqliligini ta'minlaydi. Agar tajribani bajarish uchun idishlar, reaktivlar va asboblari yetishmasa uni laborantdan so'rab oling.
13. Qo'shni stollardagi reaktivlarni olish yaramaydi.
14. Umumiy foydalanish uchun qo'yilgan reaktivni o'z ish joyingizga olib ketmang.
15. Laboratoriyada reaktivlarni ta'mini tatib ko'rish mutloqo mumkin emas.
16. Quruq reaktivlarni chinni yoki metall qoshiqchalar, hamda shpatellar yordamida, suyuq reaktivlarni esa pipetka bilan olish va ishlatib bo'lgandan so'ng 2 yaxshilab yuvib, tozalab joyiga qo'yish kerak.
17. Kislotalami suyiltirishda suvni kislotaga emas, balki kislotani suvga quyish lozim, aks holda sachrab zarar yetkazishi mumkin.

18. Kislotalarning konsentrlangan eritmalarini to'kish, shisha sinig'i, qog'oz, gugurt va ishqoriy metallar qoldig'ini, hamda shunga o'xshash keraksiz narsalarni rakovinaga tashlash mumkin emas. Ularni maxsus idishga soling.
19. Suyuqlik qizdirilayotgan probirka og'zini o'zingizdan va o'zingizga yaqin turgan o'rtog'ingizdan chetga qaratib tutish kerak.
20. Reaktivlarni keragidan ortiqcha miqdorda sarflash yaramaydi.
21. Issiq asbob yoki idishni hech qachon stol ustiga to'g'ridan-to'g'ri qo'yilmaydi. Buning uchun avval maxsus "taglik" tayyorlash lozim.
22. Mashg'ulot rejasida ko'rsatilmagan qo'shimcha tajriba o'tkazish taqiqlanganini yodingizdan chiqarmang.
23. Ayrim tajribalarni o'tkazishda himoya maska kiyish yoki ko'zoynak taqish kerak.
24. Ishlab turgan asboblarni nazoratsiz qoldirish man etiladi.
25. Mashg'ulot tamom bo'lganidan keyin har bir talaba idishlarini yuvishi, suv jo'mragini berkitishi, gaz, elektrni o'chirishi va ish joyini tartibga solib laborantga topshirishi lozim.


Kimyo laboratoriyasida ishlash qoidalari

1.1. Laboratoriyada ishlash qoidalari

Umumiy holat.

Kimyodan laboratoriya ishlarini boshlashdan oldin talaba ayni laboratoriya ishlash uchun ishlab chiqilgan xavfsizlik texnikasi bilan tanishib choqish va maxsus jurnalga qo'l qo'yishi lozim.

Talabaga o'quv yil mobaynida ishlash uchun praktikumdan joy ajratiladi. Laboratoriya ishlarini tushunib bajarishi uchun loyiq deb topilsa undan foyda kutish mumkin. Shuning uchun bir laboratoriya ishining mazmuni, adabiyot va ma'ruzalar bilan tanishib chiqqan talabaga laboratoriya ishlarini bajarishda ruxsat beriladi.





KIMYO LABORATORIYASIDA ISHLASH QOIDALARI

1. Laboratoriyada ish boshlashdan oldin xalat kiyish, suv, elektr, gaz borligi, mo‘rili shkafning ishlash – ishlamasligini ko‘zdan kechirish, so‘ngra xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish kerak.

2. Har bir talaba iloji boricha o‘zi uchun ajratilgan joyda ishlashi kerak.

3. O‘tkaziladigan tajribaning tavsifi, unda ishlatiladigan asbob va reaktivlar talabanning ish daftarida to‘liq yozilgan bo‘lishi lozim. Talabanning tajriba materialini to‘liq o‘zlashtirganiga o‘qituvchi ishonch hosil qilgandan keyin ishni bajarishga ruxsat etadi.

4. Tajriba o‘tkazilayotganida ozodalikka va sarishtalikka rioya qilish kerak.

5. Ish vaqtida gaz yoki vodoprovod jumraklari, elektr asboblari, ishlamay qolsa tezda laborantga murojaat qilish kerak.

6. Tajriba tugagach, gaz garelkasi va suv jumraklarini berkitish, elektr asboblarni o‘chirish, shuningdek tajriba natijalarini laboratoriya daftariga yozish kerak.

7. Talaba tajriba so‘ngida ishlatib bo‘lgan reaktivlarni joyiga quyishi, foydalangan idish va asboblarni tozalab, shkaflarga joylashtirishi kerak.

8. Laboratoriya darsini qoldirgan talaba o‘qituvchisiz yoki laborantsiz tajriba o‘tkazishga ruxsat etilmaydi.

LABORATORIYADA RIOYA QILINADIGAN XAVFSIZLIK TEXNIKASI QOIDALARI

Laboratoriyada ko‘ngilsiz hodisalar sodir bo‘lmasligi uchun quyidagi qoidalariga rioya qilish kerak:

1. Laboratoriyada o‘t o‘chirgich, jun material va yashikda qum bo‘lishi kerak.

2. Natriy va kaliy metallarini kerosinda, benzolda yoki Toluolda saqlash lozim. Ular qisqich bilan olinib, filtr qog‘oz ustida skalpel yordamida mayda bo‘laklarga bo‘linadi. Filtr qog‘oz ustida qolgan natriy yoki kaliy metallarining mayda bo‘laklarini tashlab yuborish man etiladi.

3. Oson o‘chuvchan va tez yonuvchan organik erituvchilar (benzol, toluol, benzin) saqlanadigan idishni ochiq holda alanga yoki elektr plitkalar oldida qoldirish man etiladi.

4. Oson o‘chuvchan va yonuvchan kimyoviy moddalarni alanga yordamida qizdirish man etiladi.

5. Tajriba o‘tkazilayotgan vaqtda ish joyini tashlab ketish qat‘iyan man etiladi.

6. Kislota eritmasini tayyorlash uchun suv kislotaga emas, balki kislota suvga oz-oz miqdorda solinadi.

7. Kimyoviy moddalarni hidlash, mazasini tatib ko‘rish va ular og‘zini ochiq qoldirish mumkin emas.

8. Tajriba tugagach gaz, suv va elektr asboblarini o'chirish va ish joyini navbatchi laborantga topshirish lozim .

KO'NGILSIZ XODISALAR RO'Y BERGANDA BIRINCHI YORDAM KO'RSATISH

1. Laboratoriyada aptechka bo'lishi shart, uni qaerda joylashganligini va undan qanday foydalanishni talabalalar bilishi lozim.

2. Issiqlik ta'sirida kuygan joyga tezda spirt yoki kaliy permanganat eritmasi bilan ho'llangan paxta quyiladi.

3. Ko'zga yoki badanning biror joyiga kislota sachrasa, o'sha yerni dastlab yaxshilab suv bilan, so'ngra sodaning 3% li eritmasi bilan yuviladi.

4. Ishqor sachraganda esa dastlab suv bilan, so'ngra sirka kislotasining 1% li eritmasi bilan yuviladi.

5. Shisha kesgan joy dastlab uning siniqlaridan tozalanadi, so'ngra yodning 3% li eritmasi surtiladi va sterillangan bint bilan bog'lanadi .

6. Gaz bilan zaharlanganda tezda novshadil spirti hidlatilib, ochiq havoga olib chiqiladi.



Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalari

1. Laboratoriyada aptechka bo'lishi shart. Uni qayerda joylashganini talaba bilishi lozim.

2. Agar teriga (qo'l, bet va boshqa joylarga) konsentrlangan kislota (nitrat, sulfat, xlorid, sirka)

to'kilsa, o'sha joyni darhol vodoprovad suvi bilan 3-4 minut yuving so'ngra kaliy permanganatning 3% li eritmasiga botirilgan paxta qo'ying. Teri kuchli shikastlangan bo'lsa tezda shifokorga murojat qilishi lozim.

3. Agar teriga ishqor to'kilgan bo'lsa, avval toza suv bilan yuvish kerak. So'ngra kaliy permanganatning 3% li eritmasidan botirilgan paxta bilan bo'lash kerak.

4. Agar terinig biror joyi alanganib kuysa, o'sh joyini kaliy permanganatning 5-10% li eritmasiga botirilgan paxta bilan bog'lash kerak.

5. Agar ko'zga ishqor yoki kislota tomchisi sachrasa ko'zni ko'p miqdordagi suv bilan yuvish so'ngra tezda ko'z shifokoriga murolat qilishi kerak.

6. Teri fosfor ta'siridan ko'yganda o'sha joyiga mis (II)-sulfatning 2% li eritmasi bilan ho'llangan paxta quyib bog'lash kerak.

7. Xlor, brom, vodorod sulfid, uglerod (II)- oksid bilan tajribalar o'tkazilganda xona havosini tez-tez almashtirib turish zarur. Buning uchun deraza darchalarini ochib qo'yilishi va mo'rili shikafdan foydalanish kerak.

8. Agar kiyimga yoki teriga ishqor yoki kislota to'kilsa shu joyni avval ko'p miqdordagi suv bilan yuving, so'ngra agar kislota to'kilgan bo'lsa, 3% li natriy bikarbonot, ishqor to'kilgan bo'lsa, 2% li sirka kislota bilan yuvib tozalang.

9. Adar tajriba vaqtidashisha idish sinib, ishlayotgan kishining biror joyini kesib ketsa, dastlab kesilgan joydan shisha maydalanib olib tashlanadi, so'ngra yod surkab, shu joyiga sterillangan doka yoki gigroskopik paxta qo'ying.

10. Gaz bilan zaharlanganda tezda navshadil spirt hidlatiladi va ochiq havoga olib chiqiladi.




ANORGANIK BIRIKMALARNING SINFLARI

Moddalarning xossalarini o'rganishni osonlashtirish maqsadida anorganik birikmalarni quyidagi 4 sinfga bo'ldik: oksidlar, kislotalar, asoslar va tuzlar.


1. OKSIDLAR.

Elementlarning kislorod bilan birikishi natijasida hosil bo'lgan birikmalar oksidlar deb ataladi. H_2O , Al_2O_3 , SO_3 , H_2O_5 . Valentlik bog'lanishlari chiziqchalar bilan ko'rsatiladi. ***Oksidlarning olinishi. Oksidlar quyidagi usullar bilan olinadi.***


1. Oksidlar metallarning bevosita kislorod bilan ta'sirli natijasida olinadi:



2. Tuzlarni parchalash usuli bilan olinadi:





3. Gidroksidlarni parchalash yo'li bilan olinadi



4. Kislotalarni qizdirish



4. Murakkab moddalarni yondirish yo'li bilan oksidlar olinadi





Tuz hosil quluvchi oksidlar suv bilan ta'sirlashib hosil qilingan birikmalarning xossalariga ko'ra yana uchga : Asosli, kislotali va amfoterli oksidlarga bo'linadi.

Oksidlar odatdagi sharoitda 3 agregat holatda gaz (CO , CO_2) suyuq (Na_2O), qattiq (SiO_2) holatda bo'lishi mumkin. Oksidlar kimyoviy xossalarning xilma-xilligiga ko'ra turt guruhga: asosli oksidlar, kislotali, amfoter, betaraf oksidlarga bo'linadi.

1. ASOSLI OKSIDLAR. deb, suv bilan birikib tegishli asoslarni hosil qiluvchi oksidlarga aytiladi. Kislotalar bilan reaksiyaga kirishib, tuz va suv hosil qiluvchi metal oksidlari asosli oksidlar deb ataladi. (Na_2O , Ag_2O , MgO , CaO , MnO). $\text{CaO} + 2\text{HCl} = \text{CaCl}_2 + \text{H}_2\text{O}$

Ishqoriy metallar (Na , K), ishqoriy yer metallar (Ca , Ba) asoslar hosil qiladi.




Oksidlarning nomi shu metall nomiga oksid so'zini qo'shish yuli bilan xosil qilinadi. Na_2O - Na oksid, CaO - Ca oksid, Al_2O_3 - Al oksid. O'zgaruvchan valentli metallar bir necha oksid xosil qila oladi. FeO - temir (II) oksid, Fe_2O_3 - temir (III) oksid, Cu_2O - mis (I) oksid, CuO - mis (II) oksid. Asosli oksidlar ishqorlar bilan reaksiyaga kirishmaydi.



Oksidlarning nomlanishi. Metall o'zgarmas valentlikka ega bo'lib, faqat bitta oksid hosil qilsa, oksidning nomi metall nomiga "oksid" so'zi qo'shib hosil qilinadi. Na_2O -natriy oksid; CaO – kalsiy oksid

O'zgaruvchan valentli metallar bir necha oksid hosil qila oladi. Bunday oksidlarning nomlarini hosil qilish uchun metall nomidan keyin qavslar ichida shu metalning valentligi ko'rsatiladi da so'ngra oksid so'zi yoziladi. Masalan: temir (III)-oksid Fe_2O_3 , Mis (I) –oksid Cu_2O , Mis (II)-oksid CuO .

Kimyoviy xossalari. 1. Asosli oksidlar suv ta'sirida tegishli asos (ishqor) larni hosil qiladilar:



2. Kislotalar bilan ta'sirlashib tuz va suv hosil qiladilar:



Fizikaviy xossalari. Asosli oksidlarning barchasi qattiq moddalar bo'lib, kristall va amorif tuzilishga hamda o'ziga xos rangiga ega: FeO - qoramtir, CuO -qora, Na_2O , CaO , MgO -oq rangli.

Ishqoriy metallarning oksidlari suvda yaxshi eriydi, ishqoriy-yer metallari qisman, boshqa asosli oksidlar yomon eriydigan moddalar. Yuqori temperaturada suyuqlanuvchi, elektr tokini o'tkazmaydigan moddalardir.

2. KISLOTALAR

Tarkibida kislota qoldig'i va metallarga almashina oladigan vodorod atomlari bo'lgan murakkab birikmalar kislotalar deb ataladi. Kislota molekulasida tarkibida bo'lib, metallarga almashina oladigan vodorod atomlari soni kislotalarning asosligini, kislota qoldigining valentligini ko'rsatadi:


- 1) I asosli kislotalar - HCl, HNO₃, 2) II asosli kislotalar - H₂S, H₂SO₄, H₂CO₃
 3) ko'p asosli kislotalar - H₃BO₄, H₃PO₄ ga, Tarkibiga ko'ra kislotalar 2 guruhga bo'linadi 1) Kislородli - H₂SO₄, HNO₃, H₃PO₄, 2) Kislородsiz - HCl, HBr, H₂S

Olinishi: 1. Kislotali oksidlarni (angidridlarni) suv bilan o'zaro ta'sir ettirish:




2. Ba'zi metalloidlarning vodorod bilan o'zaro ta'siridan hosil bo'lgan gazsimon

moddani suvda eritish. $\text{H}_2 + \text{Cl}_2 = 2\text{HCl} \uparrow$,




3. Tuzlarga kislotalar ta'sir ettirish.




Kislotalarning umumiy xossalari: 1) Kislotalarning indikatorlarga ta'siri.

Kislota va ishqor eritmalari ta'sirida o'z rangini o'zgartiruvchi moddalar indikatorlar deyiladi. Kislotalarning suvdagi eritmalari ko'k lakmusni va metiloranj rangini qizartiradi. 2) Kislotalar bilan metallarning o'zaro ta'siri. Kislota tarkibidagi N₂ ni siqib chiqara oladigan metallarning kislotalarga ta'siri natijasida tuz hosil bo'ladi va erkin N₂ ajralib chiqadi.



Metallarning aktivlik qatorini akademik N.N. Beketov ko'rsatib berdi. K, Na, Ca, Mg, Al, Zn, Fe, Pb, H, Cu, Ag, Hg, Au, Pt aktivlikning zaiflashib borishi. 3) Kislotalar bilan asosli oksidlarning o'zaro ta'siri. Tuz va suv hosil bo'ladi.





4) Kislotalar bilan ishqorlarning o'zaro ta'siri. Tuz va suv hosil bo'ladi. $\text{H}_2\text{SO}_4 + 2\text{KOH} = \text{K}_2\text{SO}_4 + 2\text{H}_2\text{O}$

5) Kislotalar bilan tuzlarning o'zaro ta'siri. Yangi tuz va yangi kislota hosil bo'ladi. $2\text{NaNO}_3 + \text{H}_2\text{SO}_4 = \text{Na}_2\text{SO}_4 + 2\text{HNO}_3$

6) Qizdirishning kislotalarga ta'siri. Kislородli kislotalar qizdirilganda kislota angidridi va suv hosil bo'ladi



7) Kislotalarning dissotsiyalanishi. Suvda eritilganda kislota molekulasida +H kationi va - kislota qoldigi anioniga dissotsiyalanadi.



3. ASOSLAR

Asosli oksidlarning gidratlari asoslar deb ataladi. Suvda yaxshi eriydigan asoslar, KON, NaOH, Ca(OH)₂ ishqorlar deb ataladi. Asoslarning ko'pchiligi suvda erimaydi.

Olinishi. 1. Ishqoriy va ishqoriy-yer metallar Na, Ku, Ca, Ba, ning suvga ta'siri natijasida ishqor hosil bo'ladi va erkin holda N₂ ajralib chiqadi: $2\text{Na} + 2\text{H}_2\text{O} = 2\text{NaOH} + \text{H}_2$, $\text{Ca} + 2\text{H}_2\text{O} = \text{Ca}(\text{OH})_2 + \text{H}_2$


2. Ishqoriy va ishqoriy - yer metallar oksidlarining suvga ta'siri natijasida ishqor

hosil bo'ladi. $\text{K}_2\text{O} + \text{H}_2\text{O} = 2\text{KOH}$, $\text{CaO} + \text{H}_2\text{O} = \text{Ca}(\text{OH})_2$


3. Suvda erimaydigan asoslar olish uchun ishqorlar og'ir metallarning suvda eriydigan tuzlariga ta'sir ettiriladi. $\text{CuSO}_4 + 2\text{NaOH} = \text{Cu}(\text{OH})_2 + \text{Na}_2\text{SO}_4$,
 $\text{Mg}(\text{NO}_3)_2 + 2\text{KOH} = 2\text{KNO}_3 + \text{Mg}(\text{OH})_2$

Asoslarning umumiy xossalari: 1. Indikatorlarga ta'sir etib, qizil lakmusni ko'kartiradi, metiloranjni sariq tusga, fenolftalinni pushti rangga kiritadi.

2. Asoslar kislotali oksidlar bilan o'zaro ta'sir etib tuz va suv hosil qiladi.




3. Asoslar kislotalar bilan o'zaro ta'sir etib tuz va suv hosil qiladi (neytrallanish reaksiya).



4. Ishkorlar tuzlar bilan o'zaro ta'sir etib yangi tuz va yangi asos hosil qiladi.



5. Suvda erimaydigan asoslar qizdirilganda suv va metall oksidi hosil bo'ladi.



6. Suvda eriydigan asoslar dissotsiyalanib, + metall kationini va - gidroksil anioniga dissotsiyalanadi: $\text{NaOH} \rightarrow \text{Na}^+ + \text{OH}^-$ $\text{Ca}(\text{OH})_2 \rightarrow \text{Ca}^{2+} + 2\text{OH}^-$, $\text{NH}_4\text{OH} \rightarrow \text{NH}_4^+ + \text{OH}^-$

1- Laboratoriya ishi

ANORGANIK BIRIKMALARNING OLINISHI VA XOSSALARI

1. Kislota va ishqor eritmalarining indikatorlarga ta'siri.

Kerakli reaktiv va asboblari: P-16 probirka, distillangan suv, fenolftalien, minzurka, pepitka, xlorid kislotasi HCl, o'yuvchi natriy NaOH, metiloranj, universal indikator, lakmus.

Uchta toza probirka olib, har biriga 5-6 ml dan distillangan suv quyung. Keyin ularning har biriga 1-2 tomchidan fenolftalein eritmasidan tomizing. So'ngra birinchi probirkaga 2-3 ml xlorid kislotasi, ikkinchisiga 2-5 ml uyuvchi natriy eritmasidan qo'shib yaxshilab chayqating. Bu ikki probirkadagi indikator rangi uchinchidagiga nisbatan qanday o'zgarganini aniqlang. Xuddi shu tajribani metiloranj eritmasi, universal indikator va lakmus qog'ozlari bilan ham takrorlang. Kuzatilgan natijalarni quyidagi jadvalga yozib eslab qoling.

Indikator	Eritma muxiti		
	Kislotali	Neytral	Ishqoriy
Fenolftalein			
Metiloranj			
Universal indikator			
Lakmus			

2. Tajriba Angidridlarga suv ta'sir ettirib kislota hosil qilish.

Kerakli reaktiv va asboblari: P-16 probirka, minzurka, distillangan suv, lakmus yoki metiloranj, Kipp apparati, karbonat angidrid CO_2 .

Ishni bajarish tartibi: Probirkaga 3-4 ml suv solib, unga lakmus tashlang so'ngra Kipp apparatidan SO_2 yuboring. Lakmusning rangi o'zgarishini kuzating. Reaksiya tenglamasini yozing.

2- Oksidlardan asos hosil qilish.

Kerakli reaktiv va asboblari: P-16 probirka, distillangan suv, minzurka, kalsiy (II)-oksid CaO , lakmus yoki fenolftalein.

Ishni bajarish tartibi: Bu tajribani bajarish uchun probirkaga ozroq suv solinadi. Uning ustiga CaO solib probirka yaxshilab chayqatiladi. Eritma hosil bo'lgach, uni lakmus yoki fenolftalein bilan sinab ko'ring. Reaksiya tenglamasini yozing.

4-tajriba. Amfoter gidroksidning hosil bo'lishi.

Kerakli reaktiv va asboblari: P-16 probirka, alyuminiy (III)-sulfat $\text{Al}_2(\text{SO}_4)_3$, minzurka, o'yuvchi natriy NaOH , lakmus yoki fenolftalein.

a) Probirkaga alyuminiy (III)-sulfat $\text{Al}_2(\text{SO}_4)_3$ eritmasidan 5-6 ml soling va uning ustiga to'cho'kma hosil bo'lguncha ishqor eritmasidan tomizing.

b) Hosil bo'lgan cho'kmani suyuqligi bilan chayqatib, ikkita probirkaga bo'ling va ularning biriga kislota, ikkinchisiga ishqor eritmasidan soling. Ikkala probirkadagi cho'kma ham erib ketadi. Cho'kmaning kislotada ham, ishqorda ham erishi sababini tushuntirib bering. Reaksiya tenglamasini yozing.

5-tajriba. O'rta tuzlarning olinishi.

Kerakli reaktiv va asboblari: P-16 probirka, CaO kalsiy oksid, xlorid kislota HCl .

Probirkaga ozroq kalsiy oksid solib, uni xlorid kislotada eriting. Bunda kalsiy xloridning o'rta tuzi hosil bo'ladi. Reaksiya tenglamasini yozing.

6-tajriba. Asos bilan kislotali oksidning o'zaro ta'siri.

Kerakli reaktiv va asboblari: P-16 probirka, ohakli suv $\text{Ca}(\text{OH})_2$, Kipp apparati, karbonat angidrid CO_2 , spirt lampasi.

a) Probirkaga Ca(OH)_2 ohakli suv eitmasidan ozgina quyning va unga Kipp apparati orqali oq cho'kma (CaCO_3) hosil bo'lguncha karbonat angidrid yuboring. Reaksiya tenglamasini yozing.

b) Hosil bo'lgan eritma butunlay erib ketguncha karbonat angidrid yuborishni davom etdiring. Cho'kmaning erishi kalsiy gidrokarbonat hosil bo'lishini bildiradi. Reaksiya tenglamasini yozing. v) Eritmani isitsangiz yana cho'kma hosil bo'ladi. Buning sababini tushuntiring va reaksiya tenglamasini yozing.

7-tajriba. Neytrallanish reaksiyasi.

Kerakli reaktiv va asboblari: Chinni kosacha, xlorid kislotasi HCl eritmasidan pipetka yordamida 3ml tomizing. Unga ko'k lakmusli qog'oz botirilsa, u qizaradi. Kosachadagi eritmaga NaOH, elektr plitani yoki spirt lampasi.

Ishning borish tartibi: Chinni kosachaga HCl eritmasidan pipetka yordamida 3ml tomizing. Unga ko'k lakmusli qog'oz botirilsa, u qizaradi. Kosacha'dagi eritmaga NaOH eritmasidan boshqa pipetka yordamida 3 ml qo'shing (kislotasi eritmasining konsentratsiyasi bilan ishqor eritmasining konsentratsiyasi bir hil bo'lishi kerak). Hosil bo'lgan eritmaning qizil va ko'k lakmusli qog'ozlarga qanday ta'sir etishini kuzating. Tuz hosil bo'lganligini aniqlash uchun, eritmali kosachani elektr plitasiga qo'yib isiting suv bug'lanib ketib, kosachada quruq tuz qoladi, Reaksiya tenglamasini yozing.

Rasm



1-Laboratoriya jihozi haqida ma'lumot

Laboratoriya jihozi nomi: Mo'rili shkaf

Ishlab chiqaruvchi nomi: Milcrotest

Laboratoriya jihozi modeli: MSO 150

Ishlab chiqilgan sanasi: 2022

Laboratoriya jihozlari soni: 2

Laboratoriya ishi olib boriladigan fan nomi: Kimyo

Laboratoriya jihozi qisqacha xarakteristikasi:

Laboratoriya mashg'ulotida zaxarli gazlarni yutib olish uchun ishlatiladi

Rasm



2-Laboratoriya jihozi haqida ma'lumot

Laboratoriya jihozi nomi: Qurituvchi shkaf

Ishlab chiqaruvchi nomi: Milcrotest

Laboratoriya jihozi modeli: VST 55

Ishlab chiqilgan sanasi: 2021

Laboratoriya jihozlari soni: 2

Laboratoriya ishi olib boriladigan fan nomi: Kimyo

Laboratoriya jihozi qisqacha xarakteristikasi:

Kimyoviy kolbalar, probirkalar quritiladi

Rasm



3-Laboratoriya jihozi haqida ma'lumot

Laboratoriya jihozi nomi: Distilyator

Ishlab chiqaruvchi nomi: LIVAM

Laboratoriya jihozi modeli: AE 4/8

Ishlab chiqilgan sanasi: 2021

Laboratoriya jihozlari soni: 1

Laboratoriya ishi olib boriladigan fan nomi: Kimyo

Laboratoriya jihozi qisqacha xarakteristikasi:

Laboratoriya mashg'ulotida distillangan toza suv olinadi



Nazorat uchun savollar

1. Anorganik moddalar qanday gruppalarga bo'lib o'rganiladi?
2. Asosli, kislotali va amfoter oksidlar deb qanday oksidlarga aytiladi? Bularga uchtdan misol keltiring.
3. Quyidagi oksidlarning qaysi biri asosli, kislotali va amfoter oksidligini aniqlang:
 P_2O_5 , N_2O_2 , CaO , Na_2O , Cr_2O_3 , FeO , CO_2 , BeO , SnO_2
4. Asos deb nimaga aytiladi va ular qanday olinadi?
5. Amfoter gidroksidlar deb nimaga aytiladi va ular qanday olinadi?
6. Quyidagi reaksiyalarning tenglamalarini davom ettiring:
 $Al_2O_3 + NaOH =$ $MgO + P_2O_5 =$ $Sr(OH)_2 + KOH =$ $CuO + CO_2 =$
 $N_2O_5 + NaOH =$ $Al(OH)_3 + H_2SO_4 =$ $Cr_2O_3 + HCl =$ $N_2O + H_2O =$
 $Sn(OH)_2 + H_2SO_4 =$ $Al_2O_3 + H_2SO_4 =$ $NaOH + Cr(OH)_3 =$ $MgO + SO_2 =$
7. Kislotalar deb qanday birikmalarga aytiladi? Misollar keltiring.
8. Kislородli va kislороdsiz kislotalarga misollar keltiring.
9. Quyidagi kislotalarning tuzilish formulasini yozing: HNO_3 , H_2SO_4 , H_3PO_4 , H_2CO_3 , $HClO_3$, $HClO_4$.
10. Asos va ishqorlar deb nimaga aytiladi? ularning bir biridan farqini misol yordamida tushuntiring.

4. T U Z L A R

Reja: 1. Tuzlarga umumiy ta'rif

2. Tuzlarning turlari.

3. Tuzlarning fizik va kimyoviy xossalari.

4. Tuzlarning olinishi

Tuzlar deb,

Kislota tarkibidagi vodorod atomlarining metall atomlariga to'la yoki qisman almashinishi natijasida hosil bo'lgan murakkab moddalar tuzlar deb ataladi. Tuzlar:

1. Normal yoki o'rta, 2 Nordon, 3 Qo'shaloq, 4. Asosli, 5. Kompleks tuzlarga bo'linadi.


NORMAL TUZLAR .Kislota tarkibida bo'lgan va metallga almashina oladigan barcha vodorod atomlarining metallga almashinishi natijasida hosil bo'lgan birikmalar normal yoki o'rta tuzlar deyiladi. Mas: Na_2SO_4 , $\text{Al}_2(\text{SO}_4)_3$.

Tarkibidagi vodorod atomlarining ikki xil metallga almashinishi natijasida qo'shaloq tuzlar hosil bo'ladi: $\text{K Al}(\text{SO}_4)_2$. Tuzlarning nomi metall nomi yoniga tegishli kislota nomini qo'shib hosil qilinadi. Na_2SO_4 - natriy sulfat, CH_3COONa - natriy atsetat, CuSO_4 - mis sulfat.


Normal tuzlarning olinishi: 1. Metallarning kislotalar bilan o'zaro ta'siri (kislota tarkibidagi vodorodni metall siqib chiqaradi va tuz hosil bo'ladi. Bunda aktivlik qatorini esdan chiqarmaslik kerak). $\text{Zn} + \text{H}_2\text{SO}_4 = \text{ZnSO}_4 + \text{H}_2$

2. Kislota bilan asosli oksidning o'zaro ta'siri $2\text{HCl} + \text{CaO} = \text{CaCl}_2 + \text{H}_2\text{O}$

3. Kislota bilan asosning o'zaro ta'siri




4. Kislota bilan tuzning o'zaro ta'siri $\text{H}_2\text{SO}_4 + 2\text{NaCl} = \text{Na}_2\text{SO}_4 + 2\text{HCl} \uparrow$;




Bunda uchuvchan kislota yoki cho'kma hosil bo'lishi kerak.


5. Kislota angidridi bilan asosning o'zaro ta'siri



6. Og'ir metall tuzining ishqor bilan ta'siri




7. Ba'zi tuzlarning o'zaro ta'siri: $\text{AgNO}_3 + \text{NaCl} = \text{NaNO}_3 + \downarrow \text{AgCl}$,



8. Kislota angidridi bilan asosli oksidning o'zaro ta'siri: $\text{CO}_2 + \text{CaO} = \text{CaCO}_3$

9. Metallar bilan metalloidlarning ta'siri



10. Tuz eritmasi bilan metallning ta'siri: $\text{CuSO}_4 + \text{Fe} = \text{FeSO}_4 + \downarrow \text{Cu}$

NORDON TUZLAR . Ko'p asosli kislota tarkibidagi vodorod atomlarining metall atomlariga qisman almashinishi natijasida hosil bo'lgan modda nordon tuz deb ataladi. NaHSO_4 , K_2HPO_4 . Nordon tuz nomi oldiga gidro yoki bi so'zi qo'shiladi. KHSO_4 - kaliy bisulfat yoki kaliy gidrosulfat.

Bir asosli kislotalarning (HCl , HNO_3 , CH_3COOH) nordon tuzlari bo'lmaydi.


Ikki asosli kislotalar faqat bir xil (KHSO_4 , NaHSO_4) nordon tuz hosil qiladi.

Uch asosli kislotalar (H_3PO_4 , H_3AlO_3) ikki xil birlamchi (NaH_2PO_4) va ikkilamchi ($\text{Na}_2\text{H}_3\text{PO}_4$) nordon tuz hosil qiladi.

Olinishi. 1. Oz miqdor ishqorga ikki yoki uch asosli kislota ta'sir ettirish:



2. Tuzlarga ikki yoki uch asosli kislota ta'sir ettirilganda




3. Kamroq miqdor ishqorga ikki yoki uch asosli kislota angidridi ta'sir ettirish usuli:
 $\text{NaOH} + \text{CO}_2 = \text{NaHCO}_3$

Agar nordon tuz eritmasiga indikatorlar ta'sir ettirilsa kislotalarga xos xususiyatga ega bo'lgani uchun indikatorlar rangini kislota kabi o'zgartiradi.

ASOSLI TUZLAR. Asosli tuzlar tarkibida metall va kislota qoldigidan tashqari gidroksil gruppasi ham bo'ladi. Ikki yoki uch valentli metall gidroksidlarining gidroksil gruppalarini qisman kislota qoldig'iga almashtirish natijasida asosli tuzlar hosil bo'ladi. $\text{Mg}(\text{OH})\text{Cl}$, $\text{Bi}(\text{OH})_2\text{NO}_3$. Nomlanishi. gidroksi so'zi qo'llaniladi. $\text{Bi}(\text{OH})(\text{NO}_3)_2$ - vismut gidroksinitrat agar 2 ta OH $\text{Bi}(\text{OH})_2\text{NO}_3$ - vismut digidroksinitrat.

Olinishi. 1. Ikki yoki uch valentli metall gidroksiiga kamroq miqdor kislota ta'sir ettirish:



2. Ikki yoki uch valentli metall tuzlari eritmasiga kamroq miqdor ishqor ta'sir ettirib $\text{FeCl}_3 + \text{KOH} = \text{Fe}(\text{OH})\text{Cl}_2 + \text{KCl}$, $\text{FeCl}_3 + 2\text{KOH} = \text{Fe}(\text{OH})_2\text{Cl} + 2\text{KCl}$

Asosli tuzni normal tuzga aylantirish uchun asosli tuz eritmasiga shu tuz tarkibidagi kislota qoldigiga ega bo'lgan kislota ta'sir ettirish kerak.



Qo'sh tuzlari. Avval valentligi (oksidlanish darajasi) katta metal, keyin valentligi kichik bo'lgan element nomi va oxirida kislota qoldig'ining nomi atalishi bilan nomlanadi. Masalan: $\text{KAl}(\text{SO}_4)_2$ -alyuminiy kaliy sulfat, $(\text{NH}_4)_2\text{Fe}(\text{SO}_4)_2 \cdot 12\text{H}_2\text{O}$ -temir ammoniy

sulfat ham deb ataladi. Shunga muvofiq, birinchi- alyuminiy kaliyli achiqtosh, ikkinchisi-temir ammoniyli achiqtos. Bu tuzlar umumiy nom bilan "achiqtosh"lar .




Kompleks tuzlar. Bu guruh tuzlarni nomlashda, avval kislota qoldig'i (yoki neytral molekula)ning lotincha soni keyin uning nomi, metallning nomi (valentligi) va tashqi sferadagi metal(yoki kislota qoldig'i) nomi aytiladi.

Masalan: $\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6\text{Cl}]$ -geksasianoferrat, $\text{K}_2[\text{PtCl}_4]$ - kaliy (II)- tetraaxloridplatinat , $\text{K}_2[\text{Fe}(\text{CN})_6\text{Cl}]$ - dixlorotetraakva xrom(III)-axlorid.

Tuzlarning fizik xossalari. Barcha tuzlar qattiq moddalar bo'lib, turli rangda bo'ladi. Ular suvda eruvchanligi bo'yicha yahshi eriydigan (NaCl , KCl , NH_3NO_3 , KNO_3 , CaCl_2), kam eruvchan(CaCO_3 , Ag_2SO_4 , PbCl_2) va juda kam eruvchan (CaCO_3 , BaSO_4 , CaSiO_3 , $\text{Al}_2(\text{SiO}_3)_3$) tuzlarga bo'linadi.


Tuzlarning kimyoviy xossalari.

1. Barcha tuzlar temperature ta'sirida parchalanadi:





2. Ko'rinib turibdiki, tuzlar parchalanganda ularning tarkibiga bo'g'liq holda turli anorganik moddalar hosil bo'ladi.


2. Nordon tuzlar ishqorlar va kislotalar bilan reaksiyaga kirishib yangi o'rta tuz va suv (kislota yoki oksidni) hosil qiladi.



3. Asosli tuzlar ishqorlar ta'sirida asos va yangi tuz hosil qiladilar:




Asosli tuzlarga kislota ta'sir ettirganda o'rta tuz va suv (tuz tarkibida kislota qoldig'idan farq qiluvchi kislota bo'lsa-yangi kislota) hosil qiladi:




Tuzlarning olinishi.

Tuzlarni olishning ko'p usullari mavjud bo'lib, ularning eng asosiylari quydagilardir.


1. Metallarning kislota bilan o'zaro ta'siri (kislota tarkibidagi vodorodni metallsiqib chiqaradi va tuz hosil bo'ladi. Bunday aktivlik qatori asdan chiqmasligi kerak:





2. Kislota bilan asosli oksidning o'zaro ta'siri:




3. Kislota bilan asosning o'zaro ta'siri (neytrallanish reaksiyasi):



4. Kislota bilan asosning o'zaro ta'siri. Bunda uchuvchan kislota va cho'kma hosil bo'ladi:



5. Kislota angidridi bilan asosning o'zaro ta'siri:



2. Laboratoriya ishi

TUZLARNING OLINISHI

1-tajriba. Metall bilan kislotaning uzaro ta'siri.

Kerakli reaktiv va asboblari: P-16 probirkasi, minzurka, pipetka, xlorid kislotasi HCl, ruh Zn metal bo'lakchasi

Ishni bajarish tartibi: Probirkaga 3-4 ml xlorid kislotasi eritmasidan quyning va bir bulak rux tashlang. Gaz ajralib chiqishini kuzating va reaksiya tenglamasini yozing.

2-tajriba. Metall bilan boshqa metall tuzining o'zaro ta'siri.

Kerakli reaktiv va asboblari: P-16 probirkasi, minzurka, mis(II)-sulfat CuSO_4 va ruh Zn metal bo'lakchasi.

Ishni bajarish tartibi: Probirkaga mis sulfat eritmasidan solib unga donadorlashtirilgan ruxdan bir-ikki dona tashlangda, eritmani rangi yuqolguncha isiting. Eritmadan mis ajralib chiqishini kuzating. Reaksiya tenglamasini yozing.

3-tajriba. Ikki tuzning o'zaro ta'siri.

Kerakli reaktiv va asboblari: P-16 probirkasi, minzurka, bariy xlorid BaCl_2 , pipetka, kaliy sulfat K_2SO_4 , bariy(II)- nitrat $\text{Ba}(\text{NO}_3)_2$, magniy sulfat MgSO_4 .

Ishni bajarish tartibi:

a) Bir probirkaga bariy xlorid eritmasidan solib, unga kaliy sulfat K_2SO_4 eritmasidan qo'shing. b) Ikkinchi probirkaga bariy nitrat $\text{Ba}(\text{NO}_3)_2$ eritmasidan solib, uning ustiga magniy sulfat MgSO_4 eritmasini qo'shing. Ikkala probirkada oq tusli bariy sulfat BaSO_4 cho'kmasi hosil bo'ladi. Reaksiya tenglamasini yozing.

4-tajriba. Kislotasi bilan tuzning ta'siri.

Kerakli reaktiv va asboblari: P-16 probirkasi, minzurka, qo'rg'oshin (II)-nitrat $\text{Pb}(\text{NO}_3)_2$, xlorid kislotasi HCl, pipetka, bariy (II)-xlorid BaCl_2 , sulfat kislotasi H_2SO_4

Ishni bajarish tartibi:

a) Bir probirkaga qo'rg'oshin(II)- nitrat $\text{Pb}(\text{NO}_3)_2$ eritmasidan solib, uning ustiga suyultirilgan HCl eritmasini qo'shing. Oq cho'kma (PbCl_2) hosil bo'lishini kuzating. Reaksiya tenglamasini yozing.

b) Bariy (II) xlorid BaCl_2 eritmasiga suyultirilgan sulfat kislotadan H_2SO_4 dan qo'shing. Bariy sulfat (BaSO_4) hosil bo'lishini kuzating. Reaksiya tenglamasini yozing.

5-tajriba. Ishqor bilan tuzning o'zaro ta'siri.

Kerakli reaktiv va asboblari: P-16 probirkasi, minzurka, mis sulfat CuSO_4 o'yuvchi natriy NaOH, spirt lampasi.

Ishni bajarish tartibi:

- a) Bir probirkaga mis(II)- sulfat (CuSO_4) eritmasidan solib, uning ustiga NaOH eritmasini qo'shing. Ko'k rangli amorf cho'kma hosil bo'lishini kuzating. Reaksiya
- b) tenglamasini yozing. Ichida cho'kmali eritma bo'lgan probirkani qizdirib cho'kmaning qorayganini kuzating. Buning sababi shuki, cho'kma qora tusli mis (II) - gidroksid bilan suvga parchalanadi. Reaksiya tenglamasini yozing.
- b) Ikkinchi probirkaga mis (II)sulfat eritmasidan solib, unga NaOH eritmasidan ozgina qo'shing. Cho'kmali eritmani isiting. Bu vaqtda cho'kma rangida o'garish paydo bo'lmaydi, chunki bu cho'kma mis (II) - gidroksid emas, balki mis digidroksisulfat $[\text{Cu}_2 (\text{OH})_2\text{SO}_4]$ (asosli tuz)dir: Natijalarni va reaksiya tenglamalarini yozing.

6-tajriba. Asosli tuzning hosil bo'lishi.

Kerakli reaktiv va asboblari: P-16 probirkasi, minzurka, mis (II)sulfat CuSO_4 , o'yuvchi natriy NaOH, kobalt (II)-xlorid CoCl_2 .

Ishni bajarish tartibi:

a) Ikkita probirkaga mis (II)-sulfat eritmasidan 4 ml dan quyding. Birinchi probirkaga 2 ml, ikkinchisiga esa 4 ml ishqor NaOH eritmasidan qo'shib yaxshilab aralastiring. Hosil bo'lgan cho'kmalar rangining har xilligiga e'tibor bering. Birinchi probirkada esa mis digidroksisulfat ($\text{Cu}_2 (\text{OH})_2 \text{SO}_4$) cho'kmasi hosil bo'lishini nazarda tutib, tegishli reaksiya tenglamasini yozing.

b) Probirkaga 2-3 ml kobalt (II)-xlorid eritmasidan quyding va uning ustiga cho'kma hosil bo'lguncha ishqor NaOH eritmasidan tomizing. Hosil bo'lgan asosli tuzning rangiga e'tibor bering.

Ishqor eritmasidan ko'proq qo'shing va asosli tuzning kobalt (II) - gidroksidga $\text{Co}(\text{OH})_2$ aylanishi natijasida cho'kma rangining o'zgarishini kuzating. Tegishli reaksiya tenglamasini yozing.

Rasm



6-Laboratoriya jihozi haqida ma'lumot

Laboratoriya jihozi nomi: Dozator pipetkalar

Ishlab chiqaruvchi nomi: RONGTAI Biochemical

Laboratoriya jihozi modeli: 2-20 uI

Ishlab chiqilgan sanasi: 2022

Laboratoriya jihozlari soni: 2

Laboratoriya ishi olib boriladigan fan nomi: Kimyo

Laboratoriya jihozi qisqacha xarakteristikasi:

Moddalarni tomchilatib tushirishda foydalaniladi

Rasm



7-Laboratoriya jihozi haqida ma'lumot

Laboratoriya jihozi nomi: Laboratoriya idishlarini siquvchi qurilma

Ishlab chiqaruvchi nomi: Ogawa Seiki Co.Ltd

Laboratoriya jihozi modeli: LS-4

Ishlab chiqilgan sanasi: 2021

Laboratoriya jihozlari soni: 24

Laboratoriya ishi olib boriladigan fan nomi: Kimyo

Laboratoriya jihozi qisqacha xarakteristikasi: Kolba va kimyoviy idishlarni siqib ushlab jarayonida foydalaniladi

Rasm



8-Laboratoriya jihozi haqida ma'lumot

Laboratoriya jihozi nomi: Areometrlar

Ishlab chiqaruvchi nomi: HP Apparatus Science Technology Co. Ltd

Laboratoriya jihozi modeli: Densitometer

Ishlab chiqilgan sanasi: 2022

Laboratoriya jihozlari soni: 1





Laboratoriya ishi olib boriladigan fan nomi: Kimyo

Laboratoriya jihozi qisqacha xarakteristikasi: Organik erituvchilarni zichligini aniqlash



Nazorat uchun savollar

1. Tuzlar deb nimaga aytiladi?
2. Tuzlar necha gruppaga bo'lib o'rganiladi?
3. Normal, nordon va asosli tuz deb nimaga aytiladi?
4. Normal, nordon va asosli tuzlar qanday olinadi? Ularga misollar keltiring.
5. Quyidagi normal tuzlarning olinish reaksiyalarini davom ettiring:



6. Quyidagi normal tuzlarning tuzilish formulasini yozing:

MgSO_4 , CaCO_3 , $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$, $\text{Bi(OH)}_2\text{NO}_3$, NaHSO_4 , K_2HPO_4 , NaHCO_3

KIMYOVIY KINETIKA VA MUVOZANAT

Reja:


1. Kimyoviy kinetika.
2. Kimyoviy reaksiya tezligi.
3. Kimyoviy reaksiya tezligiga ta'sir etuvchi omillar.
4. Kimyoviy muvozonat. Le-Shatel'e printsipli.

Kimyoviy reaksiyaning tezligi haqidagi ta'limot kimyoviy kinetika deyiladi. Kimyoviy reaksiyaning tezligi deganda reaksiyaga kirishayotgan moddalardan birining konsentratsiyasini vaqt birligi ichida o'zgarishi tushuniladi. Moddaning hajm birligidagi miqdori konsentratsiya deb ataladi. Reaksiyaga kirishayotgan moddalarning konsentratsiyasi odatda 1 litr hajmdagi moddaning mollari (gramm-molekulalari) soni bilan ifodalanadi. Masalan, tezlik 2 mol/min deyilsa, bir minutda reaksiyada ishtirok etayotgan moddalarning konsentratsiyasi 2 mol o'zgargan bo'ladi. Reaksiya tezligi reaksiyada ishtirok etayotgan moddalarning konsentratsiyasiga, reaksiya borayotgan sharoitga, temperaturaga, moddalar sirtining katta-kichikligiga va katalizatorning ishtirok etish-etmasligiga bog'lik. Odatda, qutbsiz molekulari moddalar reaksiyaga sekin kirishadi, oson qutblanuvchi yoki qutbli molekularlar tezroq, ion bog'lanishli moddalar suvli eritmalarida o'zaro juda tez reaksiyaga kirishadi.

1. Konsentratsiyaning ta'siri. A va V moddalar o'zaro kimyoviy reaksiyaga kirishishi uchun ularning molekulari yoki zarrachalari bir-biri bilan to'qnashishi kerak. To'qnashuvlar qanchalik ko'p bo'lsa, reaksiya unchalik tez boradi. Reaksiyaga kirishayotgan moddalarning konsentratsiyalari qanchalik yuqori bo'lsa, to'qnashuvlar soni ham shunchalik ko'p bo'ladi. Shu tajribalar asosida kimyoviy kinetikaning asosiy qonuni kelib chiqadi. Kimyoviy reaksiyaning tezligi reaksiyaga kirishayotgan moddalar konsentratsiyalarining ko'paytmasiga proporsionaldir. Masalan, A va V moddalar reaksiyaga kirishayotgan bo'lsa,


$$V = k[A][B]$$

bo'ladi; bunda $[A][B]$ - A va V moddalarning molyar konsentratsiyasi. k - proporsionallik koeffitsienti bo'lib, u reaksiyaning tezlik konstantasi deyiladi. Agar A va V larni 1 ga teng deb olsak, ya'ni reaksiyaga kirishayotgan moddalardan har birining konsentratsiyasi 1 molga teng bo'lganda bu konstanta reaksiya tezligiga teng. O'zgarmas temperaturada har qaysi reaksiyaning tezlik konstantasi ko'zgarmas kattalidir. (k) - qanchalik katta bo'lsa, ayni moddalar reaksiyaga shunchalik tez kirishadi. Misol uchun vodorod yodid hosil bo'lishini ko'rib chiqaylik:



$$V = k[H_2]^2[O_2] = k[H_2]_2[O_2],$$

Umumiy holda $mA + nB = e$, $v = k[A]^m[B]^n$. Agar reaksiyada gazlar yoki eritmalar bilan birga qattiq moddalar ham ishtirok etsa, uning tezligi faqat gaz yoki erigan moddalarning konsentratsiyasiga bog'lik holdagina o'zgaradi. Masalan, ko'mirning yonish jarayoni:



.Tezlik kislorodning konsentrasiyasiga proporsional bo'ladi. $V = k[O_2]$.


2. Temperaturaning ta'siri. Reaksiya tezligining temperaturaga bog'liqligi Vant - Goff qoidasi bilan aniqlanadi, ya'ni. Temperatura har 10 gradusga ko'tarilganda ko'pchilik reaksiyalarning tezligi 2-4 marta ortadi. Reaksiya tezligining temperatura ko'tarilishi bilan ortishiga sabab shuki, u ko'tarilganda zarrachalarning harakati tezlashadi va natijada vaqt birligi ichida to'qnashishlar soni ortadi.

Kimyoviy muvozanat
(Qaytar kimyoviy reaksiyalar).


Ko'pgina kimyoviy reaksiyalarda, reaksiya uchun olingan moddalar reaksiyaga kirishishi natijasida tamomila boshqa moddalarga aylanadi yoki jarayon oxirigacha davom etadi. Masalan, **bertole** tuzi qizdirilganda kaliy xloridga va kislorodga qoldiqsiz aylanadi.




Bu reaksiya bir tomonlama reaksiya deyiladi va u oxirigacha davom etadi. Vodorod bilan temir quyundisi orasida boradigan reaksiya tamomila boshqa. Agar qattiq qizdirilgan temir quyundisi ustidan vodorod o'tkazilsa, temir quyundisi temirga aylanadi, vodorod esa temir quyundisi tarkibidagi kislorod bilan birikib, suv hosil qiladi:



Ikkinchi tomondan xuddi shunday temperaturada temir kukuniga suv bug'i ta'sir ettirib temir quyundisi hamda vodorod olish mumkin.



Bir sharoitning o'zida ikki tomonga ham bora oladigan jarayonlar qaytar yoki ikki tomonlama jarayonlar deb ataladi. Qaytar reaksiyalarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, agar reaksiyaga kirishayotgan moddalar o'zaro ta'sir doirasidan chiqarib yuborilmasa, bu reaksiya oxirigacha davom etmaydi. To'g'ri va teskari reaksiyalarning tezligi o'zaro teng bo'lganda kimyoviy muvozanat qaror topadi, ya'ni qaytar reaksiyalar oxirigacha davom etmaydi. Kimyoviy muvozanat qaror topishi bilan u to'xtaydi, ya'ni vaqt birligi ichida qancha modda reaksiyaga kirishsa, xuddi shuncha miqdordagi modda qayta hosil bo'ladi, jarayon to'xtab qolmaydi. O'zgarish sharoitda kimyoviy muvozanat hamma vaqt saqlanib turadi. Lekin sharoit o'zgarishi bilan muvozanat buziladi. Har qanday muvozanat nisbiydir. Masalan quyidagi reaksiya borayotgan bo'lsin:



Massalar ta'siri qonuniga ko'ra to'g'ri reaksiya tezligi:

$$V_1 = K_1 [A]^a [V]^v.$$

$$\text{Teskari reaksiya tezligi } V_2 = K_2 [S]^s [D]^d,$$

K_1 va K_2 - to'g'ri va teskari reaksiyalarning tezlik konstantalari. Reaksiya davom etgan sari reaksiya uchun olingan moddalarning konsentrasiyalari $[A]$ va $[V]$ kamayib boradi, va to'g'ri reaksiya tezligi V_1 ham kamayib hosil bo'layotgan moddalarni konsentrasiyasi $[S]$ va $[D]$ ortadi va V_1 teskari reaksiya tezligi V_2 ga teng bo'lib qoladi.

Demak, muvozanat konstantasi shuni ko'rsatadiki, hosil bo'lgan moddalar muvozanat konsentrasiyalari ko'paytmasining dastlabki moddalar muvozanat

konsentrasiyalari ko'paytmasiga nisbati o'zgarish qiyamatga ega bo'lganda kimyoviy muvozanat qaror topadi.

Kimyoviy reaksiyalarning muvozanat holatoda harorat, bosim va reaksiyada ishtirok etayotgan moddalarning konsentrasiyalari ta'sir etadi. Tashqi sharoit ta'sirida konsentrasiyaning o'zgarishi muvozanatning siljishi deyiladi.

Bu holat Le-Shatel'ening quyidagi prentsiyaga bo'ysinadi: Sistemaning kimyoviy muvozanat holatiga doir sharoitlardan (harorat, bosim, konsentrasiya) biri o'zgartirilsa, muvozanat shu o'zgarishiga qarshi ta'sir ko'rsatuvchi reaksiya tomonga siljiydi.

3 - Laboratoriya ishi

Reaksiya tezligining reaksiyaga kirishuvchi moddalar konsentrasiyasiga bog'liqligi

Kerakli reaktiv va asboblari: Natriy tiosulfat $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$, distillangan suv sulfat kislotasi H_2SO_4 , 3-ta stakan, P-16 probirkasi, minzurka.

Ishning boorish tartibi: 3-ta stakancha oling, ularning birinчисiga 5ml, ikkinчисiga 10ml, uchinчисiga 15ml $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$ natriy tiosulfat eritmasidan quyung: Birinchi probirkaga 10ml, ikkinчисiga 5ml. suv quyung. Uchta probirkaga sulfat kislotasi eritmasidan 5 ml dan quyung. Vaqtni belgilab turib, har qaysi stakanchaga probirkalardan biridagi kislotani quyib, tezda aralashtiring. Har bir stakanda qancha vaqtdan so'ng (sekund xisobida) loyqa hosil bo'lishini kuzating. Ishni quyidagi tartibda yozing (1-jadval).

Probirka raqami	$\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$ ning ml. miqdori	H_2O ning ml. miqdori	H_2SO_4 ning ml. miqdori	loyqa hosil bo'lish vaqti, sonij, t	$V=100/t$
-----------------	--	---------------------------------------	--	-------------------------------------	-----------

- _____
- _____
- _____

Kuzatish natijalarini grafik tarzida ifodalang. Buning uchun absissalar o'qiga $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$ ning nisbiy konsentrasiyasini, ordinatalar o'qiga esa reaksiyaning nisbiy tezligini quyung. Reaksiya tezligining konsentrasiyaga bog'liqligini qilingan tajribaga ko'ra asoslang.

4 - Laboratoriya ishi

Reaksiya tezligining temperaturaga bog'liqligi.

Kerakli reaktiv va asboblari: P-16 probirkasi, 3-ta stakan, minzurka, termometir, Natriy tiosulfat $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$, distillangan suv, sulfat kislota H_2SO_4 .

Ishning boorish tartibi:

Bitta probirkaga natriy tiosulfat eritmasidan 5ml, ikkinchisiga esa sulfat kislota eritmasidan 5 ml quyung. Probirkalarni suvli stakanga solib quyung. Har 5-7 minutda suv temperaturasini o'lchab, ikkala probirkadagi eritmani aralashtiring va loyqa hosil bo'lguncha o'tgan vaqtni (sekund hisobida) aniqlang. Boshqa ikkita probirka olib ularning biriga natriy tiosulfat eritmasidan 5 ml, ikkinchisiga esa sulfat kislota eritmasidan 5 ml quyung. Probirkalarni suvli stakanga tushiring. Suvning temperaturasini avvalgi tajribadagi temperaturadan $10\text{ }^\circ\text{C}$ oshiring. Loyqa hosil bo'lguncha o'tgan vaqtni hisoblang. Ishni quyidagi tartibda yozing

Rasm



5-Laboratoriya jihozi haqida ma'lumot

Laboratoriya jihozi nomi: Elektron termometr

Ishlab chiqaruvchi nomi: One –stop solutions from here

Laboratoriya jihozi modeli: YET 610 L

Ishlab chiqilgan sanasi: 2022

Laboratoriya jihozlari soni: 4

Laboratoriya ishi olib boriladigan fan nomi: Fizika, Kimyo

Laboratoriya jihozi qisqacha xarakteristikasi: Eritmalarni haroratini aniqlash

Tajriba raqami	Tajriba o'tkazilgan harorat	Loyqaning hosil bo'lgan vaqti	Reaksiyaning nisbiy tezligi
1			
2			
3			

Abssissalar o'qiga temperaturani va ordinatalar o'qiga reaksiyaning nisbiy tezligini quyib, kuzatish natijalarini egri chiziq bilan ifodalang.

Rasm



10-Laboratoriya jihozi haqida ma'lumot

Laboratoriya jihozi nomi: magnitli maydalagich
Ishlab chiqaruvchi nomi: LCD Digital 7 Square Hotplate
Laboratoriya jihozi modeli: MS7-H550 PRO
Ishlab chiqilgan sanasi: 2021
Laboratoriya jihozlari soni:2
